

23-maktabning matematika fan o'qituvchisi Urayeva G.S ning 9-sinflar o'rtasida o'tkazgan **“Omad kulib boqqan damlar”** deb nomlangan tadbir mazmunnomasi

(9-sinflar o'rtasidagi bellashuv)

tadbir shiori: “Kim matematikani bilmasa haqiqatni bilmaydi,
Kim uni tushunmasa zulmatda yashaydi.”

Tadbir shartlari:

- 1. “Avval o'yla, keyin so'yla”
- 2. “Tezkor savollar”
- 3. Barcha fanlar ko'lamida.
- 4. Xotira mashqi.
- 5. Tez aytishli topishmoq.
- 6. “Sudoku” o'yini.
- 7. Matematik maqol aytish
- 8. Qadimiy masala.
- 9. Belgilar ma'nosi.

1-SHART: “Avval o'yla, keyin so'yla”

1. Nazariy savol (5 ball) 2. Hisoblashga doir (3 ball) 3. Qiziqarli savollar (1ball)

1. Nazariy savol (5 ball) Butun ko'rsatkichli daraja qanday xossalarga ega?

Javob: 1) $a^n \cdot a^m = a^{n+m}$

4) $a^n : a^m = a^{n-m}$

2) $(a^n)^m = a^{nm}$

5) $(ab)^n = a^n b^n$

3) $\frac{a}{b}^n = \frac{a^n}{b^n}$

2. Hisoblashga doir (3 ball)

1) $\sin \frac{\pi}{6} = ?$

javob: $\sin \frac{\pi}{6} = \frac{1}{2}$

2) $\cos 270^\circ = ?$

Javob: $\cos 270^\circ = 0$

3) $\operatorname{tg} 45^\circ = ?$

Javob: $\operatorname{tg} 45^\circ = 1$

Qiziqarli savol: (1ball)

Oldinda borayotgan ikki kishi ---3 ta konfet topib oldilar.

Ularning izidan kelayotgan to'rt kishi nechta konfet topadilar?

2-shart: “Tezkor savollar” (1-guruh)

1.9-sinf Algebra kitobining muallifi kim? (j : Mirzaahmedov, Alimov)

2. $\sqrt[3]{125} = ?$ (j : 5)

3. Uchburchakning ichki burchaklar yig'indisi? (j: 180°)

4. Kvadrat funksiyaning grafigi qanday ataladi? (j: parabola chizig'i)

5. $(-7)^2 = ?$ (j: 49)

6. Har qanday sonning 0-darajasi... (j: 1 ga teng)

7. $X^2 = 16$ $x_1 = ?$ $x_2 = ?$ (j: $x_1 = 4$ $x_2 = -4$)

8. $5^{-1} = ?$ (j: $\frac{1}{5}$)

9. 1 rad = ? gradus (j: 1 rad = $57,3^\circ$)

10. $\sin 60^\circ = ?$ (j: $\frac{\sqrt{3}}{2}$)

2-shart: “Tezkor savollar” (2-guruh)

1. 9-sinf Geometriya kitobining muallifi kim? (J: Haydarov, Sariqov, Qo'chqorov)
2. $\sqrt[3]{27} = ?$ (J: 3)
3. To'rtburchakning ichki burchaklar yig'indisi? (J: 360°)
4. $y = \frac{1}{x}$ funksiya grafigi nima deb a-di? (J: giperbola)
5. $(-8)^2 = ?$ (J: 64)
6. $-1 < x < 1$ $x \in \mathbb{Z}$ $x = ?$ (J: $x=0$)
7. $X^2 = 36$ $x_1 = ?$ $x_2 = ?$ (J: $x_1 = -6$ $x_2 = 6$)
8. $9^{-1} = ?$ (J: $9^{-1} = \frac{1}{9}$)
9. $\pi = ?$ (J: 3,14)
10. $\cos 30^\circ = ?$ (J: $\cos 30^\circ = \frac{\sqrt{3}}{2}$)

3-shart: Barcha fanlar ko'lamida (matematika fani bilan bog'liqlik)

- | | |
|---------------------------|------------------------|
| 1. Ona tili (1 b) | 10. Adabiyot (1 b) |
| 2. Fizika (1 b) | 11. Kimyo (1 b) |
| 3. Rus tili (1 b) | 12. Ingliz tili (1 b) |
| 4. Algebra (1 b) | 13. geometriya (1 b) |
| 5. Biologiya (1 b) | 14. Iqtisod (1 b) |
| 6. Huquq (1 b) | 15. Tarix (1 b) |
| 7. Informatika (1 b) | 16. Chizmachilik (1 b) |
| 8. Jismoniy tarbiya (1 b) | 17. Mehnat (1 b) |
| 9. Geografiya (1 b) | 18. M.I.G' (1 b) |

1-guruh uchun savollar:

1. Ona tili: Jumlani to'ldiring: ... zo'r ... yiqar, ... zo'r ... yiqar.
javob: Bilagi zo'r 1 ni yiqar, bilimi zo'r 1000 ni yiqar.
2. Fizika: Elektr kuchlanishni topish formulasi?
javob: $U = \frac{A}{q}$
3. Rus tili :O'zbek tiliga tarjima qiling: У фермера 3520 белых кроликов, а серых на 287 больше, чем белых. Сколько кроликов у фермера?
javobi: fermerda 3520 ta oq quyonlari va ulardan 287 taga ko'p kulrang quyonlari bor. Fermerda jami qancha quyonlari bor? 7327ta
4. Algebra: kosinusning choraklardagi ishorasini ayting.
javob: I va IV choraklarda musbat, II va III choraklarda manfiy.
5. Biologiya: Inson jigarining massasi qancha?
Javob: 1500 g
6. Tarix: Nechanchi yili Hindistonda Boburiylar imperiyasiga asos solindi?
javob: 1526-yil.
7. Informatika: Kompyuter so'zining ma'nosi?
javob: inglizcha "hisoblovchi inson" ma'nosini anglatadi.
8. Jismoniy tarbiya: 1 oyoqda sakragan holda 1 dan 10 gacha bo'lgan sonlarning kvadratini hisoblab ayting.
Javob: 1;4;9;16;25;36;49;64;81;100
9. Geografiya: O'zbekiston maydoni qancha? javob: 448,9 ming km.kv

2-guruh uchun savollar:

10.Adabiyot: Alisher Navoiyning “Xamsa” asari nechta dostondan iborat?

javob: 5 ta

11.Kimyó:Mendeleyev davriy sistemasidagi kalsiyning massasi qancha?

javob: Ca 40

12.Ingliz tili: $4 \cdot 40 + 5 = ?$ (ingliz tilida ayting.)

Javob:four multiply fourty pluz five =165(one hundred sixty five)

13.Geometriya:Pifagor teoremasini ayting.

javob: $a^2 + b^2 = c^2$ katetlar kvadratining yig'indisi gipotenuzaning kvadratiga teng.

14.Iqtisod: Boylik nima?

javob:kishining barcha insoniy va moddiy kapitallari yig'indisi.

15.Huquq:O'z. Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida nima deyilgan?

javob: O'zbekiston-suveren demokratik respublika.Davlatning "O'zbekiston Respublikasi" va "O'zbekiston" degan nomlari 1 ma'noni anglatadi.

16.Chizmachilik: Kesik konus nechta o'lchamga ega?

j:Kesik konus 3 ta o'lchamga ega:D-katta diametri;d-kichik diametri;h-balandlik)

17.Mehnat: Mehnatdan kelsa boylik,...

javob: Mehnatdan kelsa boylik,turmush bo'lar chiroylik.

18.M.I.G': Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" kitobi qachon yozilgan? javob: 2008-yil

4-shart: Xotira mashqi

10 ta matematik belgini eslab qolish va takrorlash.

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
$\neq$	$\parallel$	$\emptyset$	$\approx$	$\leq$	$?$	$\%$	$\perp$	∞	$+$

5-shart: Tez aytishli topishmoq:

1-guruh : Olim oldi opasidan oldin oltmish olti olmani, opasi oldi Olimdan ortiq oltmish olti olmani.

Olmalar jami nechta bo'lgan?

javob: $66 + (66 + 66) = 66 + 132 = 198$

2-guruh : Sobir soldi savatga sakkiz sakkiz somsani,Salima savatga soldi Sobirdan sakkizta kam somsani.

Savatga jami qancha somsa solingan?

javob: $88 + (88 - 8) = 88 + 80 = 168$

6-SHART: SUDOKU o'yini (bo'sh kataklarga 1,2,3,4 raqamlarini shunday joylangki, barcha yo'nalishlar bo'yicha yig'indi 10 bo'lsin.

1			
			2
		2	
	1		

Javobi:

1	2	3	4
3	4	1	2
4	3	2	1
2	1	4	3

7-SHART: matematik maqol aytish

Sharti: guruh a'zolaridan bir kishi mimikalar yordamida maqolni aytadi, guruhi a'zolari uni topishi va ovoz chiqarib aytishi kerak.



1-guruh uchun savollar:

- Sanamay sakkiz dema.
- Bir mayizni qirq kishi bo'lib yeydi.
- Ikki o'n besh , bir o'ttiz.
- Bilagi zo'r – birni yiqitar, bilimi zo'r- mingni.
- Bir kun tuz ichgan joyingga , qirq kun salom qil.

2-guruh uchun savollar:

- Yetti o'lchab, bir kes.
- Bir kattaning gapiga kir, bir kichikning.
- Birni kessang o'nni ek.
- Qars ikki qo'ldan chiqadi.
- Beshta barmoq teng emas.

8-SHART: qadimiy masala

Ovulda 1 chol istiqomat qilardi. Uning 3 o'g'li bor edi. Chol vafot etgach, undan 17 ta tuya meros qoldi. Chol o'lim to'shagida yotib, katta o'g'lim podaning **yarmini**, o'rtanchasi **uchdan bir** qismini, kenjatoyim **to'qqizdan bir** qismini olsin" deb vasiyat qilgan edi. Otaning vasiyati-ga ko'ra bironta ham tuya so'yilmasligi kerak edi. Otaning vafotidan keyin, o'g'illari merosni bo'lib olishga kirishdilar. Qancha harakat qilish-masin, bari bir bo'lib olisholmadi. Og'a-inilar juda ko'p bahslashib, bir natijaga kelisha olmadi. Shu payt ovuldan tuya mingan bir chol o'tib qoldi. Aka-ukalarning muammosini tinglab, chol miyig'ida kulib qo'ydi va ularga yordam berishini aytdi...

Chol merosni bo'lib beribdi. Uchala og'a-ini hursand bo'lishibdi, haligi chol esa, o'z tuyasiga minib yo'lga ravona bo'libdi.

Savol: chol tualarni qanday qilib bo'lib berganiykin?


qadimiy masala javobi:

Chol 17 ta tuyaga o'zinikini qo'shibdi. Keyin 18 ta tiyani 2 ga bo'lib, 9 tasini katta o'g'ilga beribdi. 18 ni 3 ga bo'lib, uchdan bir qismi 6 ta tiyani o'rtanchasiga, 18 ni 9 ga bo'lib, bundan 1 qismini, ya'ni 2 ta tiyani kenjatoyiga beribdi. $9+6+2=17$ ta shunday qilib u 17 ta tiyani o'gillarga oqilona bo'lib beribdi va o'z tuyasiga minib yo'lida ravona bo'libdi.

9-SHART:Ushbu xalqaro tamg'a-belgilar qanday ma'no anglatadi?

Sen belgiga razm sol, nima ko'ra olasan.

adashtirmaging zinhor, naq sharmanda bo'lasan!



javobi:

Mehmonxonalarda, samolyot va poyezdlarda ayollar va erkaklar uchun xos maxsus xonalar eshigiga qo'yilgan belgi.



Buxoro shahar xalq ta'limi muassasalarining faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limiga qarashli 23-son o'rta umumta'lim maktabining matematika fan o'qituvchisi O'rayeva Gulshan Saidaxmedovnaning 9-sinflar o'rtasida o'tkazgan tadbir

mazmunnomasi



Buxoro shahar 23-umumta'lim maktabi

"Omad kulib boqqan damlar"



**Matematikadan sinfdan tashqari tadbir
Mazmunnomasi (9-sinflar uchun)**

Tuzuvchi: Urayeva Gulshan Saidaxmedovna